

---

## Milliy gvardiya vakolatlarining kengayishi.

### Jamoat tartibini saqlashga doir amalga oshirilayotgan muhim o'zgarishlar. Milliy gvardiya vakolatlarining kengayishi.

O'zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash hamda davlat ob'yektlarini qo'riqlash muhim vazifa hisoblangan. Tarixiy manbalarda sohaga doir qabul qilingan hujjatlar asosida, mamlakatda ichki xavfsizlikni ta'minlash maqsadida faoliyat olib borgan tuzilmalarning nomi, boshqaruv strukturasi, vazifalari va xizmat faoliyati doimiy ravishda o'zgarib borganligi kuzatiladi. Jamoat tartibini saqlash - fuqarolarning [shaxsiy](#) va jamoat xavfsizligi, tashkilotlarning normal faoliyat ko'rsatishi hamda fuqarolar mehnat qilishi va dam olishi uchun to'liq sharoit yaratishga, ularning sha'ni, qadr-qimmatini hamda umumxloqiy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltirilgan huquqiy va ijtimoiy normalar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash, aholi tinchligi xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda ichki qo'riqlash kabi vazifalarni amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tarixi aynan shu sohaga oid faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati tarkibida boshlangan. Joriy yilning may oyida prezident Shavkat Mirziyoyev Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirishlar kiritish, xususan, Milliy gvardiya xodimlarining vakolatlarini kengaytirish to'g'risidagi qonunni imzoladi. O'zbekistonda Milliy gvardiya organlarining xodimlariga mayda bezorilik qilgan, sovuq qurolni yoki shunga o'xshash ashyolarni olib yurganlarga bayonnomalar tuzish va ularni ko'rib chiqish uchun sudga yuborish yuzasidan qo'shimcha vakolatlar berildi. Senatorlar **«Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirishlar kiritish haqida»**gi qonunni ko'rib chiqib, uni ma'qulladi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlariga yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish (bayonnoma tuzish) vakolati berilmagani sababli yuqorida qayd etilgan holatlar bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarga hal etish uchun yuborilgan. Bu esa o'z navbatida, ortiqcha hujjat aylanishi va eng asosiysi, fuqarolarning sarson bo'lishiga olib kelar edi. Shu vaqtgacha ularning zimmasiga huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, davlat obyektlari, jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkini qo'riqlash, jamoat tartibini saqlash, jamoat joylarida patrullik qilish kabi vazifalar yuklatilgan. Yangi o'zgarishlarda keltirilishicha, yangi vakolatlar voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, tilanchilik qilish hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish holatlarida ham amalga oshiriladi. Bunda mazkur toifadagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ichki ishlar organlarida ham saqlanib, huquqbuzarlik Milliy gvardiya xodimlari tomonidan aniqlangan taqdirda, ularga jarima jazosini qo'llash huquqi berilmoqda. Shu bilan birga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yuqorida keltirilgan o'zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar bo'yicha Milliy gvardiya organlariga huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish huquqi berilmoqda. Endilikda Milliy gvardiya xodimlari va harbiy xizmatchilari Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning quyidagi moddalari yuzasidan huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish, bayonnomalar tuzish va jarima solishi mumkin:

1. 187-moddaning 1-qismi (Jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish);
2. 188-modda (Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish);
3. 188–2-modda (Voyaga yetmagan shaxsning ko'ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo'lishiga yo'l qo'yish);
4. 192-modda (Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish).

kabi ayrim vakolatlar taqdim etildi. Yuqoridagi fikrlarni va amalga oshirilgan o'zgarishlarni yaxlit bir konsepsiya deb olsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi aholi tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, fuqarolarda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyilini amalga oshirish hisoblanadi. Bu maqsadga erishish jamoat xavfsizligini ta'minlashning yaxlit tizimini ishlab chiqish, huquqbuzarliklarning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni ochish va tergov qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bo'linmalarini in kasbiy tayyorgarligini yuksaltirish asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatining Milliy gvardiyaga berilishi, tumanlararo patrulpost xizmati bo'linmalarini tashkil etish, mahallalarda profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning

---

maqbullashtirilishi jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foziljon Hatamkulov

Fuqarolik ishlari bo'yicha

O'zbekiston tumanlararo sudi sudyasi

2023-07-31 11:10:42